


MEHNAT KODEKSINING MAZMUN-MOHIYATIGA BAG'ISHLANDI

MEHNAT KODEKSINING MAZMUN-MOHIYATIGA BAG'ISHLANDI


Oltinsoy tumani hokimligi Axborot xizmati November 09, 2022



Bugun, 9 noyabr kuni Oltinsoy tuman hokimligi majlislar zalida 2022 yil 28 oktyabrdagi tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining mazmun-mohiyatini tushuntirishga bag'ishlangan seminar bo'lib o'tdi.



Seminarda Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashi kotibiyat mudiri Saydulla Abdurayimov hamda tumandagi barcha idora va tashkilotlar rahbarlari, mahalla fuqarolar yig'ini raislari va faollar ishtirok etdi.



Seminarni Oltinsoy tumani hokimi o'rinbosari Xayrulla Qosimov boshqarib bordi.



Seminarda dastlab soʻzga chiqqan Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashi kotibiyat mudiri Saydulla Abdurayimov oʻzgartirish kiritilgan Mehnat Kodeksi xususida maʼruza qildi. Oltinsoy tuman Aholi bandligiga koʻmaklashish markazi davlat, mehnat, huquq inspektori Odil Karimov oʻzgartirish kiritilgan Mehnat kodeksidagi yangiliklar bilan yigʻilganlarni tanishtirdi.



Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashi deputati Ashurali Oripov, Taʼlim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Oltinsoy tuman boʻlinmasi raisi Akbarali Jumaevlar soʻzga chiqib, Yangi Oʻzbekistonning Mehnat kodeksini barcha rahbarlar va xodimlar boʻlimi boshliqlari mukammal bilishlari zarurligini taʼkidlashdi.